

INSON RUHINING KUCHI- TABASSUM

Abdurashidova Gulnoza

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Hayot insondan sabr, mehnat va ko'p qiyinchiliklarni talab qiladi. Ammo eng murakkab yo'lni biz bilmagan, bir qarashda oddiy bo'lgan, ammo eng kuchli yechimi-tabassumdir. Birgina tabassum orqali har qanday holatni ifoda etishimiz mumkin. Aslida kulguning sirli jihatlaridan biri ham shudir. Shu yerda savol paydo bo'ladi. Inson bazida ichidagi dardlarini kulgu orqali yengib o'tadi, yoki tabassum orqali ko'rsatadi. Bu jihatdan qay bir tabassum afzal sof tabassummi? yoki qayg'uli tabassummi? Albatta inson ichidagi dardni kulgu orqali ko'rsatish jasorat deyishimiz mumkin, ammo har narsaning asl ko'rinishi yaxshi bo'lgani kabi tabassumning ham asl mohiyati yaxshidir. Buyuk mutafakkir, olim Abu Ali Ibn Sino kulgu haqida shunday degan: "Kulgu- inson ruhining sog'lomligidan darak beradi." Ming yillar o'tib bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Darhaqiqat, samimiy tabassum- insonning qalb osoyishtaligini, ruhiy salomatligini ko'rsatib beradi. Shu bilan bir qatorda ozimning hayotimda bo'lib o'tgan bir voqea haqida so'zlayman.

Qish faslining sovuq kunlari edi. Men maktab yoshidagi, qayg'u nima ekanligini bilmaydigan qizcha edim. Tushlik vaqtidan so'ng to'satdan onamning telefoni jiringladi. Onam telefondagi bir necha gapni eshitdilaru telefonni tashlab yubordi. Men uzoqda bo'lsam ham telefondagi gaplar noxush xabarligini sezib turar edim. Onam shoshib qayoqqadir ketdi. Oradan bir necha kun o'tdi va men onamning onasi vafot etganligini otamdan eshitdim. Yana oradan kunlar o'tdi va meni onamning oldiga yani buvimning uyiga olib borishdi. Shunda onamning mayus ko'zlari yig'idan shishib ketganligini va bir necha kunlar ichida o'zgarib ketganligini yosh bo'lsamda yuragimdan his qilgan edim. Shu payt onamning aytgan bir o'g'iz samimiy tabassum bilan gapirgan gaplari hanuzgacha yodimdan ketmaydi. Onam bu dunyodagi jannati, onasini yo'qotganda, menga tabassum bilan aytgan gaplari shunday edi: "Onam yonimda emas, yonimdagi qizim onamdir."

Birgina onamning tabassum orqali gapirgan gaplari hayotimdagi eng mazmunli gap edi. Bu gaplar qayg'uli holatda aytilgan bo'lishiga qaramasdan, onamning yuragidagi eng samimiy gap tabassum orqali aytilgan edi. Yuqorida aytib o'tganimdek tabassumning ham asl mohiyati, qalbimizdan samimiy chiqishi haqiqiy go'zallikdir. Zero qalbimizning samimiyligi- ruhimizning sog'lomligidir.

